

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI TARJIMONLIK
FAKULTETI ARAB TILI YO'NALISHI**

**III KURS, "A" GURUH TALABASI USMONOV MUROD QOSIMOVICHning
"ASOSIY CHET TILI ARAB TILI" FANIDAN YOZGAN**

KURS ISHI

Mavzu: arab tili harf so'z turkumining

Bajardi:

Rahimov A.

Qabul qildi:

Alamov Sh.

SAMARQAND-2015

Reja :

Kirish:

I bob

1.1 Arab tilida predloglar va ularning ahamiyati

1.2 Ega va kesimni nasb holatiga olib keluvchi harflar

II bob

2.1 Fe'lni "jazm" xolatida boshkaruvchi yuklamalar

2.2 Boglovchilar ,ism va fe'llarni o'zgarishga uchratmaydigan harflar

2.3 Xulosa

Kirish

Respublikamiz o'z mustakilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab xalkimiz ma'naviy-madaniy boyliklarini xar tomonlama o'rganish, ularni kelgusi avlodlarga to'liq etkazish va xozirgi avlodni ulardagi ijobiy an'analar asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormokda.

Uzok tarixga ega bo'lgan o'zbek xalki, uning yuksak madaniyati, kadriyatlari, boy ilmiy merosi butun jaxonning diqqat - e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va kelmokda. Ibn Sino, Beruniy, Ulugbek, Muhammad al-Xorazmiy, Maxmud Zamaxshariy, Al Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimizning nomlari va yaratgan asarlari mashxur bo'lib, ularning ijodlari jaxon madaniyati xazinasiga ko'shilgan bebaxo boylik bo'lib xisoblanadi. Ammo shu allomalar yaratgan ilmiy asarlar, yozma yodgorliklarning aksariyati to'laligicha o'rganilgan emas. Mustakillik yillarida buyuk vatandoshlarimizning yaratgan boy ilmiy meroslari o'rganila boshladi va bu yo'lda bugungi yosh o'sib kelayotgan kadrlarimizga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Xususan arab tiliga bo'lgan e'tibor yanada oshdi va bu bilan Movaraunnahr va xuroson o'lkalariga VI-VII asrlarda kirib kelgan arab tili va arab yozuvi va shu davrdan boshlab toki Chor Rossiyasi yurtimiz hududiga kirib kelguniga qadar arab yozuvi asosida yaratilgan boy ilmiy me'rosimizni o'rganish va tadqiq qilish imkoniyatlari eshigi ochildi. Bu biz uchun asrlar davomida hali tadqiq qilinmagan va o'rganilmagan ma'naviy, madaniy, ilmiy meroslarimizni omma e'tiboriga havola etib milliy meroslarimizni o'rganishda bo'gan ilmiy tadqiqotlar salmog'ini oshirish uchun xizmat qiladi.

Horirgi arab tili ham jahon tillaridan biri hisoblanadi. Arab tilida bugungi kunda laxja va shevalarning ortib ketishi sof arab tilini ya'ni, fus'ha tilini o'rganish zaruratini talab qiladi. Fus'ha tilini o'rganish uchun esa arab tili grammatikasini mukammal o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Arab tili grammatikasi boshqa dunyo tillarining grammatikasiga qaraganda anchagina murakkabligi bilan ham alralib turadi. Arab ko'p davrlardan beri o'rganilmoqda xususan Mahmud Zamaxshariy arab tili grammatikasini tuzib chiqadi. Bunan tashqari arab tili ustida

ish olib borgan olimlardan Grande, Talabov, Xolidov, Hasanov, Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov, Sunnatullo Bekpolatov va shu kabi boshqa sharqshunos olimlarni nomlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Biz ushbu kurs ishida arab tilidagi harf so'z turkumi, uning xususiyatlari, morfologik va sintaktik munosabatlari, so'zlarga qo'shilganda unga beradigan ma'nolari va so'zlarga ko'rsatadigan ta'sirlari haqida so'z yuritiladi. Arab tili harf so'z turkumi o'z ichiga predloglar, yuklamalar, kana va uning birodarlari deb nomlanuvchi fe'lga ta'sir qiluvchi yuklamalar guruhi, inna va uning birodarlari deb nomlanuvchi egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar guruhi, nido harflari, bog'lovchilar va so'roq ma'nosini ifodalovchi harflar kiradi.

Ushbu kurs ishi ikki bob kirish va xulosa qismidan tashkil topgan. I bobda arab tilidagi predloglar va ism va kesimlarni nasb qiladigan yuklamalar haqida gap boradi. Arab tilidagi predloglar o'zbek tilidagi kelishiklarga to'g'ri keladi. predloglar ismlarni qaratqich kelishigida kelishga majbur qiladi. Predloglarga في, على, إلى, من kabilar kiradi. Ega yoki kesimni tushum kelishigida kelishini ta'minlaydigan yuklamalarga كان, ليس, أن, إن va shu kabi yuklamalar kiradi. II bobda esa fe'llarni jazm qiluvchi yuklamalar va bog'lovchilar haqida so'z yuritiladi.

I bob.

1.1 Predloglar va ularning ahamiyati

Arab tilidagi “xarf” atamasi o’zbek tilidagi “xarf” atamasiga nisbatan kengroq ma’noda ko’llaniladi. Xozirgi zamon arab grammatistlaridan xisoblangan Antuan Ad-Daxdaxning iborasi bilan aytadigan bo’lsak, “xarflar” ikki turli bo’lib, ular alifbo xarflari "المباني حروف" va ma’no bildiruvchi xarflar "المعاني حروف" ga bo’linadi. O’zbek tilida ko’llaniluvchi “xarf” atamasi arab tilidagi "المباني حروف", ya’ni alifbo xarflariga mos kelsa, arab tilidagi "المعاني حروف" o’zbek tilidagi yuklama, ko’makchi, boglovchi va undov so’zlarga, bir ibora bilan aytadigan bo’lsak, “yordamchi so’z turkumi”ga mos keladi. Maxmud Zamaxshariyning “Mukaddamatu-l-adab” asarining uchinchi kismi mana shu yordamchi so’zlarga bagishlangan. Ushbu kism sakkiz fasldan iborat bo’lib, ular kuyidagilardir:

1. الأسماء تجر التي الحروف في فصل - Ismlarni karatkich kelishikda bo’lishini talab kiluvchi xarflar fasli.
2. الأسماء تنصب التي الحروف في فصل - Ismlarni tushum kelishigida bo’lishini talab kiluvchi xarflar fasli.
3. الخبر ترفع و الاسم تنصب التي الحروف في فصل - Ism bilan ifodalangan egani tushum kelishikda, kesimni bosh kelishikda bo’lishini talab kiluvchi xarflar fasli.
4. الخبر ينصبان و الاسم يرفعان حرفان فصل - Ism bilan ifodalangan egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishikda bo’lishini talab kiluvchi ikki xarf fasli.
5. المضارع تنصب التي الحروف في فصل - Xozirgi kelasi zamon fe’lini “nasb” (fatxali) xolatida bo’lishini talab kiluvchi xarflar fasli.
6. الفعل تجزم التي الحروف في فصل - Fe’lini “jazm” (sukunli) xolatida bo’lishini talab kiluvchi xarflar fasli.
7. العطف الحروف في فصل - Boglovchilar fasli.
8. عاملة غير حروف في فصل - Ism va fe’llarni o’zgartirmaydigan xarflar fasli

Predloglar.

Maxmud Zamaxshariy “Ismlarni karatkich kelishikda bo’lishini talab kiluvchi xarflar” deb nomlangan birinchi faslda o’n ettita old ko’makchining yani, predloglarni xar biri muxtasar bir shaklda misollar bilan berilgan. Maxmud Zamaxshariy o’zidan keyin kelayotgan ismni karatkich kelishikda kelishini talab kiluvchi kuyidagi old ko’makchilarni keltiradi. Ularga:

بِ – bilan, vositasida. Masalan: كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ

مِنْ – dan. Masalan: مِنَ الْكِتَابِ

إِلَى – ga. Masalan:

فِي – da. Masalan:

رُبَّ –

رُبَّمَا –

عَلَى – ustida, da

عَنْ – haqida

كَ – kabi

مِنْذَ –

مِذَ –

حَتَّى – gacha, to qadar

حَاشَا –

خِلا –

عَادَ –

va ularning خِلا ما, عَادَ ما shakllari, shuningdek, kasamni ifodalovchi

وَاللَّهِ – و



بالله—ب qasamni ifodalaydi va الله so'zini qaratqich kelishigida olib
تالله—ت keladi.

old ko'makchilari kiradi.

Bundan tashkari, Maxmud Zamaxshariy xozirgi zamon arab tili darsliklarida uchramaydigan رب old ko'makchisining رَبَّتْ va رُبْتُ shakllarini xam keltirib o'tgan. Mazkur shakllar Maxmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n naxv” asarida xam mavjud emasligining guvoxi bo'ldik. Shunday kilib, birinchi fasldagi old ko'makchilar kachon va kanday ma'noda ko'llanilishi muallif tomonidan faqat misollar orqali berilgan.

Zamonaviy arab tilida predloglarga quyidagicha ta'rif beriladi va shunday o'rganiladi o'rganiladi:

Arab tilida kelishiklar soni juda oz bo'lganligi sababli pretmet, voqea-hodisaning vaqtga, o'ringa munosabati, chegaralanish va boshqa turli munosabatlar asosan predloglar yordamida ifodalanadi.

Predloglar tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. Asl predloglar.
2. Ot predloglar.
3. Murakkab predloglar.

Asl predloglar. Mustaqil so'z shaklini yo'qotgan va faqat predlog sifatidagina ishlatiladigan so'zlar asl predloglardir. Asl predloglarga quydagilarkiradi:

في....-Da, ichida (bu va bundan keying predloglarning asosiy manosigina beriladi). في المعهد—institutda

إلى—ga, gacha. إلى المساء—oqshomgacha

من...---tongdan. من الصُّبْحِ—dan

على—da, ustida, ustiga. على الطاولة—stolustida.

darshaqida. عَنِ الدَّرْسِ. -haqida. عَنْ

qalqmvositasida. بِالْقَلَمِ. bilan, vositasida. بِ

domlahuzurida. لَدَى الْأَسْتَاذِ. huzurida, qoshida, ...da. لَدَى

do`st bilan birga. مَعَ الصَّدِيقِ. bilan birga. مَعَ

studentda bor. لِلطَّالِبِ. ning, ...da bor. لـ

quyoshkabi. كَالشَّمْسِ. dek, kabi. كَ

tongacha. حَتَّى الصَّبَاحِ. gacha. حَتَّى

ikkiyildan buyon. مِّنْهُ سَنَتَيْنِ. --dan buyon. مِّنْهُ

Ot-predloglar. Bu guruhga o`zining otlik xususiyatini yo`qotmagan, ot sifatida ishlatilishi mumkin bo`lgan, lekin shu bilan birga predlog vazifasida xam kelishi mumkin bo`lgan so`zlar kiradi. Bular predlog va zifasida ishlatilganida ko`pincha tushum kelishigida keladi.

maktabichida. دَاخِلَ الْمَدْرَسَةِ. ichida, ichiga. دَاخِلَ

tashqariga. تَاشْقَارِجَ. tashqarida, tashqariga. جَ

orqali. عَبْرَ

kanikuldavomida. خِلَالَ الْعُطْلَةِ. davomida. خِلَالَ

orqasida. بَيْنَ

yaqinida. قُرْبَ

oldida. أَمَامَ

qarshisida. إِيَّاءَ

orqasida, orqasiga. وِرَاءَ

ustida, ustiga. فَوْقَ

تَحْتَ—ostida,ostiga.

خَلْفَ—orqasida,orqasiga.

عِنْدَ--...da,huzurida.

حَوْلَ—atrofida,haqida.

حَوْلَى—qariyib,taxminan.

Bu soʻzlar bazan mustaqil soʻz sifatida boshqa predloglarni qabul qilishi mumkin.

Murakkabpredloglar. Bular ikki-uch soʻzdan iborat boʻlib, yuqoridagi predloglarga nisbatan murakkabroq munosabatlarni ifodalaydi:

1. لِـ...nideb, yoʻlida.
2. فِيـ nideb, yoʻlida.
3. خِلَافَ لـ ga qaramay.
4. خَوْفًا مِنْـ dan qoʻrqib.
5. فَضْلًا عَنْـ dan tashqari.
6. عَلَى مَقَرَّبَةٍ مِنْـ yonida, yaqinida.
7. بِأَلْعُقْرَبِ مِنْـ yonida, yaqinida.
8. بِجَانِبِـ yonida, yaqinida.
9. بِأَلْعَرَّغَمِ مِنْـ ga qaramasdan
10. بِصَرْفِ النَّظَرِ عَنْـ dan tashqari
11. بِأَلْنَّظَرِ إِلَىـ sababli
12. بِأَلْنَّظَرِ إِلَىـ sababli
13. عَرْضًا عَنْـ ning badaliga
14. عَرْضًا لـ ning badaliga
15. بِنَتِيجَةِ لـ natijasida
16. بِوَسِيطَةِـ vositasida
17. Yuqorilardan ب ل ك predloglari va shu predloglar bilan tugagan murakkab predloglar oʻzidan keying soʻzga qoʻshib yoziladi. Masalan:
18. بِأَلرَّسَّةِـ perobilan.

19. ال—predlogi ل—artikli bilan kelgan soʻzlarga qoʻshilganida, artikldagi vaslali hamza (ا) yozuvda tushib qoladi. Masalan:

لِلْحُكْمِ ل+الْحُكْمِ

Qolgan predloglarning barchasi oʻzidan keying soʻzdan ajratib yoziladi.

Predloglar asosan ism guruhidagi soʻzlarning oldida keladi va ular bilan munosabatga kirishadi, lekin ular ayrim feʼllarga ham oʻz tasirini oʻtkazishi mumkin. U yoki bu feʼl oʻzidan keyin turgan predlog bilan bogʻliq holda turli maʼnolarni bildirishi mumkin.

Undalma (nido)

Ikkinchi fasl - «Ismlarni tushum kelishigida kelishini talab kiluvchi xarflar». Bu faslda ettita yuklama keltirilgan boʻlib, bular kuyidagilar: «istisnolik» maʼnosini bildiruvchi لا-, undov-chakirikni ifodalovchi يا ,أى ,هيا يا أ maʼnosini anglatuvchi الهمزة , yaʼni أ xamda zamonaviy oʻzbek arabshunoslari «birgalik toʻldiruvchisi» deb nomlaydigan - و boglovchisi.

Gapdagi anglashilgan maʼno tegishli boʻlgan shaxs yoki predmetni bildiruvchi soʻzga undalma deyildi.

Undalma harflari quyidagilar:

يا , أيا , هيا , أى , أ

Masalan: muallim « يا عبد الله, لا تلعب » (Ey Abdulloh, oʻynamagin) desa, Abdulloh ismli oʻquvchining oʻgirilib qarashini va لا تلعب (oʻynamagin), degan soʻzning diqqat etishini talab qilgan boʻladi. SHuningdek, bu jumladagi عبد الله ismi «**munodo**» boʻladi. Masalan:

يا عبد الله — ey Abdulloh

أيا عبدَ الكريم – ey Abdukarim

هيا عبدَ الرحمان, – ey Abdurrahmon

أي جمالَ الدين, – ey Jamoliddin

أ عماد الدين – ey Amoiddin

Undalmaning xususiyatlari shundan iboratki, u gap boshida, o'rtasida va oxrida kelishi mumkin.

Agar undalma izofa shaklida bo'lsa izofaning muzof qismi tushum kelishigida keladi. Masalan,

يا طالبَ العلم

يا كاتبَ المکتوب

يا عميدَ الكلية

Undalmada ko'rsatiladigan so'z aniq holatda bo'lsa va u muazakkar bo'lsa, ايها, muannas bo'lsa ايته (undalmaning sonidan qat'iy nazar) ishlatiladi. Masalan:

أيها الرجل – ey, odam

أيته الطالبة – ey, talaba qiz

Мунодо тўрт хил бўлади:

1. Накраи мақсуда. 2. Накраи ғойри мақсуда. 3. Алами муфрад. 4. Музоф.

«Накраи мақсуда» деб муаййан бир зот қасд қилинган накрага айтилади. Масалан муаллим, исмини билмаган бир ўқувчининг ўйнаб турганини кўриб, унга қараб **لا تلعّب** деса, бунда **تلميذ** муаййан бир шогирд (масалан, Усмон) мақсад этилган бўлади. Ва унинг ўйнамаслиги талаб қилинган бўлади. **تلميذ** эса накрадир.

«Накраи ғойри мақсуда» деб муаййан бир зот қасд қилинмаган накрага айтилади. Масалан: муаллим қийин бир масалани сўзлаш олдидан

Ўқувчиларнинг назар диққатларини жалб этиш учун **يا غافلا اسمع كلامى** деса, бунда **يا غافلا** муайян бир шогирд мақсад бўлмай, балки гафлат босган ҳар бир шогирднинг диққат билан тинглаши талаб қилинади.

«Алами муфрад» деб музоф бўлмаган аламга айтилади.

يا فرید, يا محمودان, يا محمودون каби.

«Музоф» деб иккинчи бир исмга нисбат берилган исмга айтилади.

يا عبد الله, يا أمير المؤمنين каби.

Мунодо музоф ва накраи гойри мақсуда бўлганда мансуб бўлади. **يا عبد الله, يا أمير المؤمنين** каби.

Алам муфрад ва накра мақсуда бўлганда нимага марфуъ бўлса, шунга мабний бўлади.

يا فرید, يا تلميذ, يا محمودان каби. Буларнинг аввалгиси ва иккинчиси рафъ аломатлари дамма бўлганидан даммага мабний бўлган. Кейингисининг рафъ аломати алиф нун бўлганлигидан алиф нунга мабний бўлган.

"**إِنَّ و أخواتها**"

«Ism bilan ifodalangan egani tushum kelishikda va kesimni bosh kelishikda boshkaruvchi yuklamalar »da zamonaviy arab grammatistlari «Egaga ta'sir kiluvchi yuklamalar», arab naxvchilar "**إِنَّ و أخواتها**" deb nomlaydigan barchaga ma'lum olti – **إِنَّ , أَنْ , كَأَنَّ , لَيْت , لَكَنَّ , لَعَلَّ ,** yuklamalari xakida ma'lumot berilgan. Shuningdek, «Ism bilan ifodalangan egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishikda boshkaruvchi yuklamalar» nomli to'rtinchi faslda, **لا** va **ما** inkor yuklamalari misollar yordamida sanab o'tilgan.

Ma'lumki, gapning egasi har doim bosh kelishikda keladi. Lekin arab tilida shunday yuklamalar ham borki , ularning ta'sirida ehga tushum kelishigida kelishga majbur bo'ladi. Bunday yuklamalar 6ta:

إِنَّ – haqiqatda, haqiqatdan. ko'pincha bu yuklama o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Masalan:

إن البيت واسع – (haqiqatda) uy kengdir.

إن الغرفة جميلٌ – (haqiqatda) xona kattadir.

إن العلم مفيدٌ – (haqiqatda) ilm foydalidir.

Agar **إن** va shuga o'xshash yuklamalar fe'l kesimli gaplarga qo'shilsa, gapning egasi oldinga o'tadi. Boshqacha aytganda, bu yuklamalardan keyin bevosita gapning egasi keladi. Masalan:

كتب الطلاب هذه الجملة – talabalar bu jumlanı yozdilar.

إن الطلاب كتبوا هذه الجملة – haqiqatdan talabalar bu jumlanı yozdilar.

Agar gapning egasi kishilik olmoshidan iborat bo'lsa, bu yuklamalardan keyin sh olmoshga mos bo'lgan qo'shib yoziluvchi olmosh keladi va sh yuklamalarga qo'shib yoziladi. Masalan:

هي كتبت هذه المقالة – u qiz bu maqolani yozdi

إنها كتبت هذه المقالة – haqiqatdan u qiz bu maqolani yozdi.

I shaxs birlik va ko'plik birikma olmoshlari ikki xil variantda qo'shilishi mumkin:

أنا = إني

إننا = إنا

إن yuklamasi ishtirok etgan kesimli gapda ham, fe'l kesimli gapda ham gapning kesimi oldidan yuklamasi qo'shilishi mumkin. Va tarjima qilinmaydi. Masalan :

إن الله لرؤوف رحيم – haqiqatdan Olloh mehribon va rahmlidir

إن الطلاب كتبوا هذه الجملة – haqiqatdan talabalar bu jumlanı yozdilar.

إن tipidagi jumlalarda ham qo'shilganida, gapning egasi tushum kelishigida keladi. Masalan:

إن للحيطان اذاناً – Devorning ham qulog'i bor (so'zma –so'z tarjima qilganida : haqiqatdan quloq devornikidir.)

Agar **إن** yuklamasiga yuklamasi qo'shib kelsa, ma'noda o'garish bo'lmaydi, lekin gapning egasi bosh kelishikda keladi. Masalan:

قد يكون الغيبُ حلوا إنما الحاضر أحلى – Kelajak shirin bo'lsa ehtimol, aslida hozirgi payt shirindir.

إن – go'yo, go'yoki,...dek. Bu yuklama ham **إن** yuklamasi kabi morfologik

xususiyatlarga ega.

كأن زينب ملك – zaynab farishta kabidir.

كأن أباك بطل – go'yo otang qahramondir.

...ki. Bu yuklama ko'pincha shaxsi ma'lum gaplarda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarga qo'shiluvchi ergshtiruvchi bo'lovchi vazifasini bajaradi. Masalan:

من المعلوم أن محمداً شاب عاقل

Ma'lumki, Muxammad aqlli yigitdir yoki Muhammadning aqlli yigit ekanligi ma'lum.

من المستحيل أن الطالب قد فروا

Mumkin emaski, talabala qochishgan bo'lsa. Yoki Talabalarning qochib ketishlari mumkin emas.

سمعنا كلنا أن الصيام مفيداً

– Biz hammamiz eshitdikki, ro'za tutish foydalidir. Yoki Biz hammamiz ro'za tutishning foydali ekanligini eshitdik.

Eslatma. To'ldiruvchi ergash gapli gaplarda bosh gapning kesimi قال — demok, fe'lidan iborat bo'lsa, أن yuklamasi ma'nosida إن yuklamasi ishlatiladi.

و لكن — lekin, biror. Bu yuklama zidlovchiboglovchi vazifasida keladi. Masalan:

كلنا ذهينا إلى حديقة الحيوانات و لكن مخمودا لم يذهب

— Barchamiz hayvonot bogiga bordik, lekin Maxmud bormadi.

لعل — eshitimol, shoyad. Bu yuklama gumonni, amalga oshishi ham, oshmasligi ham mumkin bo'lgan tilakni bildiradi. Mas.,

لعل أخاه يفهم Ehtimol, uning (mz) akasi tushunar.

يا ليتي كنت تراباً – Shoyadki (zora), sizlar yutuqqa erishsangiz.

ليت — koshki. Bu yuklama amalga oshirish mumkin bulmagan tilakni bildiradi. Masalan: يا ليتي كنت تراباً

Oh, koshki edi men tuproqqa aylansam.

كان و اخواتها

«Кана»нинг хабари

كان Felining manosi <<bo'lmoq>>dir. O'zbek tilidagi<<bo'lmoq>> feli kabi arab tilida xam bu fel ikki vazifani bajaradi;

1.Mustaqil fel vazifasini . Masalan;

أُكْتُفِ فِي الْقَرْيَةِ_Kecha men qishloqda bo'lgan edim.

2.Ot yoki sifat bilan birga kelib,o'tgan yoki kelasi zamonda turgan qo'shma felning yordamchi feli vazifasini. Bunda bu fel bilan kelgan ot yoki sifat noaniq holatda ega bilan jinsda va sonda moslashgani xolda tushum kelishigida keladi.Masalan;

مَرِيضًا كَانَ الطَّالِبُ_Student kasal edi.

كَانَ فَاطِمَةُ طَالِبَةً -Fotima student edi.

كُنَّا تَلَامِيذًا-Biz o'quvchi bo'lgan edik.

M: كان البستان مثمرًا Боғ мевали бўлди жумласидаги «مثمرًا» сўзи «кана»нинг хабари дейилади.

«Кана» феълидан кейин икки исм келиб аввалгиси рафъ қилинади. У «кана»нинг исми дейилади. Иккинчиси эса насб қилинади. У «кана»нинг хабари дейилади. Шунинг учун «кана»нинг хабари насб исмлардан ҳисобланади.

Kana va axovatuha arab tilidagi yordamchi fe'llar hisoblanadi.Yordamchi fe'l deb subyektni ish harakatini bildiruvchi yetakchi fe'l bilan birga kelib, unga qo'shimcha ma'no yuklaydigan fe'llarga yordamchi fe'llar deb ataladi.Yordamchi fe'llarni ” **noqis fe'llarni mulammallovchisi**”deb ham atashadi.arab tilida yordamchi fe'llarning eng mashhulari 12tadir.Ular quyidagilar:

كان – bo'ldi.

صار – aylandi.

أصبح – subh vaqtida bo'ldi.

أمسي – kechqurun bo'ldi.

أضحى – zuho vaqtida bo'ldi.

ظلّ – kunduzi bo'ldi.

بات – tunda bo'ldi.

ما زال – doim bo'ldi.

ما انفكّ – doim bo'ldi.

ما فتئ – doim bo'ldi.

ما برح – doim bo'ldi.

ما دام – bolgan vaqtida.

ما'nosida bo'lgan كمل، إرتدّ، تمّأ، تحول، آل kabi fe'llarning her biri noqis fe'llar jumlasidan deb hisoblanadi. masalan:

آل زيد غنياً – Zayd boy bo'ldi.

تحول الجمد ماء – Muz suvga aylandi.

إرتدّ زيد بصيراً – Zayd ko'r bo'ldi.

تمّ الدراهم عشرين – Dirhamlar 20taga yetdi.

كمل الدنانير ألفا – Dinorlar 1000taga yetdi.

Noqis fe'llarning mutammioti (mukammallovchisi) har doim foilning sifatidan bo'ladi. Masalan: كان زيد عالماً jumlasidagi Zaydning sifati kabi.

Muzakkar va muannas bo'lishda hamda mufrod, tasniya va jam bo'lishda noqis fe'llarning mukammallashtiruvchisi foillariga ergashadi.

Masalan: كان الرجل عالماً، كان الرجلان هالمين، كان الرجال عالمين

Noqis fe'llari mukammallashtiruvchining har biri mansub bo'ladi. noqis fe'llarning masdari ham bir mukammallashtiruvchiga muxtoj bo'ladi.

Masalan:

كون زيد عالما - عجيب

Beshinchi fasl - «Fe'lni «nasb» xolatiga ko'yuvchi yuklamalar» faslida xozirgi kelasi-zamon fe'lini tushum kelishigiga ko'yuvchi to'rtta yuklama berilgan. Ular: istakni bildiruvchi أَنْ, kuchli inkor mazmunini ifodalovchi لَنْ, ish-xarakatning maksad-sababini anglatuvchi كَيْ va إِنَّ yuklamalaridir.

Shuningdek, أَنْ yuklamasining tarkibida uning ma'nosini beruvchi حتى, و, أو, لَ kabi boglovchilar keltirilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, B.M.Grande o'zining «Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvechenii» nomli asarida yukoridagi boglovchilarni أَنْ tarkibida emas, balki mustakil xolda beradi.

Oltinchi fasl - «Fe'lni “jazzm” xolatida boshkaruvchi yuklamalar» deb nomlanib, bu faslda muallif fe'lni «jazzm» (sukunli xolat) kiluvchi beshta أَنْ, لَ, لِمَا, لَمْ va buyruk maylining inkor shaklini yasashda ko'llaniluvchi لَا yuklamalari xakida ma'lumot beradi.

«Boglovchilar fasli» deb nomlangan ettinchi faslda to'kkizta boglovchi, jumladan, biriktiruvchi و, ثَمَّ, ayiruvchi أَوْ, zidlovchi لَكِنْ, xamda لا va حتى boglovchilari izoxlangan, shuningdek, ثَمَّ ning “summat” shakli xam ko'llanilgan.

«Илла» («лекин», «бошқа»)нинг мустасноси

Мустасно: الأُдан кейин келиб, الأُнинг олдидаги жумла маъносининг хилофини билдирган исмдир. فريدا خرج التلامذة من الكتاب. الأُдегандagi فريدا خرج التلامذة من الكتاب. Бунда الأُнинг олдидаги

жумласи, ўқувчиларнинг мактабдан чиққанликларини англатади. Энди бунинг ортидан **الا فريدا** десак, бошқалар чиқиб, Фариднинг чиқмагани билинади. Бу ерда **الا** сўнгидан келган **فريدا** калимаси **الا** нинг олдидаги жумла маъносининг хилофини англатяпти. Шунинг учун **فريدا** мустасно бўлади.

الا дан кейин зикр этилган исм «мустасно», деб айтилади, дедик. **الا** нинг олдидаги сўз яъни унга **ال** араб сўзланган исм эса «мустасно минъ», дейилади.

Масалан, юқоридаги **التلامذة** «мустасно минъ»дир. Чунки чиқиш унга **ال** араб сўзланган. Чиқувчи кишилар ўқувчилар бўлган. Масалан:

ورقة الكتاب бўлади, бунда мустасно минъ **حفظ محمد الكتاب** **الا ورقة** десак, Чунки ёдлаш унга **ال** араб сўзланган. Ана шу ёдланган **ورقة** эса мустасно бўлади, негаки у ёдланмай **ال** олган.

Мустасно минъ баъзи вақт зикр этилади, баъзи вақтда эса зикр этилмайди. Масалан, **ما اجتهد إلا خالد** у деганда, мустасно минъ зикр этилмаган.

Мустасно минъ зикр этилган каломга «том», дейилади. Зикр этилмаганига «ноқис», дейилади.

الا нинг олдидаги жумлада нафийни (инкорни) англатадиган бирор нарса бўлса, унга «манфий», дейилади. Нафийни англатадиган нарса бўлмаса, «мусбат», дейилади.

Масалан **خرج التلامذة من الكتاب إلا خالد** мисолида, калом мусбат бўлган.

ما خرج التلامذة من الكتاب إلا خالد мисолида калом манфий бўлган. Мустасно калом том ва мусбат бўлганда, мансуб бўлади. Бошқа вақтларда ўрнига **ال** араб марфуъ, мансуб, мажрур бўлиши

МУМКИН.

So'nggi «Ism va fe'llarni o'zgarishga uchratmaydigan xarflar» nomli sakkizinchi faslda ism yoki fe'lga ta'sirsiz bo'lgan o'n to'kkizta yuklama va boglovchilar keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardir

: إِي , يَلَى , أَجَل , نَعَمْ , أ , أَمْ , هَل , كَلَّا , سَوْفَ , س , قَدْ , ل...لَا , ل...لَوْ : inkor javoblarda ko'llaniluvchi - لَا

lar. مَا أ , لَا أ , ف...أَمْ , إِمَّا , إِمَّا...وَأَيُّ , xamda yuklamasi ,

Maxmud Zamaxshariyning «Mukaddamatu-l-adab» asarida jami etmish bitta yuklama, ko'makchi va boglovchilar xakida ma'lumot uchratamiz. Shuni aytib o'tish joizki, «Mukaddamatu-l-adab»ning xarflarga bagishlangan kismi juda muxtasar va mukammal tarzda, xarflarga xech bir sharx berilmagan xolda yozilgandir.

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, til doimo rivojlanib boradi. U rivojlanishdan to'xtamaydi. Mumtoz naxvshunos olimimiz Maxmud Zamaxshariy xarflar turkumini mana shunday o'ziga xos va betakror tarzda tasnif qilganlarining guvoni bo'ldi. Xarflarni xech bir arab tiliga oid darslikda Zamaxshariyning asarida berilgani kabi bir joyga jamlangan xolda tasniflanmaganligini aytib o'tish joizdir.